



## “SABOT UL - OJIZIN” ASARI MA’NAVIY YUKSALISH VA AXLOQIY KAMOLOT DOSTONI

**Doniyorova Mohinur Tolliboy qizi,**  
JDPU o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi doktoranti

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207031>

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asarining ma’naviy ahamiyati, uning jamiyatni axloqiy va diniy jihatdan yangilashdagi o‘rni chuqur tahlil etilgan. Asar, o‘zining badiiy shakli va mazmuni bilan, insonni sof islomiy e‘tiqod asosida axloqiy tarbiya qilish, ma’naviy qadriyatlarni saqlash va jamiyatni to‘g‘ri yo‘ldan yuritish g‘oyasini ilgari suradi. So‘fi Olloyor bu asarida nafaqat diniy bilimlarni, balki axloqiy fazilatlarini, ma‘rifatni va odo-axloqni targ‘ib etadi. Asar ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi xalqni g‘aflatdan uyg‘onishga chaqirsa, ikkinchi qism sufiya va soliklarning ma’naviy fazilatlarini yoritadi. Maqola, shuningdek, “Sabot ul-ojizin”ning badiiy jihatlari, uning tilidagi chuqur ma‘nolar va she‘riy ifodalar orqali inson ruhiyatiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi haqida ham to‘xtaladi. Maqola, So‘fi Olloyorning asari bugungi kunda ham ma’naviy ma‘rifat beruvchi durdona sifatida dolzarbligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** So‘fi Olloyor, ma’naviyat, axloq, islomiy e‘tiqod, badiiy asar, jamiyatni yangilash, tariqat, so‘fiylik, nasihat, Qur‘on va hadis.

Bugungi kunda mamlakatimizda milliy ma’naviyatni yuksaltirish, qadimiy yozma manbalarni saqlash va o‘rganish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mumtoz adabiyotimizni asl manbalar asosida chuqur tadqiq etish va uni keng targ‘ib qilish jarayonlari jadallik bilan davom etmoqda. Bu esa jamiyatimizning har bir ongli fuqarosida ma’naviy merosimizni o‘rganish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlod ongiga singdirishdek mas‘uliyat hissini oshirmoqda.

Bunday yuksak ma’naviy qadriyatlar aks etgan asarlardan biri So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” dostonidir. Ushbu asar jamiyatni ma’naviy yangilanish sari yetaklovchi, insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi asarlar sirasiga kiradi. Shoir asar orqali “aqidasi sof komil insonni shakllantirish” g‘oyasini ilgari surgan bo‘lib, bu maqsadga sof islomiy e‘tiqod bilan yo‘g‘rilgan jamiyat orqali erishish mumkinligini ta‘kidlaydi. Chunki ma’naviy islohot amalga oshirilmagan jamiyatda bid‘at va johillik keng tarqalishi, odamlarning iymon-e‘tiqodiga putur yetishi mumkinligini adib chuqur anglagan. Zero, jamiyat isloh qilinmas ekan, soxta avliyolar nafs ilinjida jamiyatni gumroh etishi, ko‘r-ko‘rona sig‘inish oqibatida iymon-e‘tiqodga va ma’naviy qadriyatlariga putur yetishi mumkin ekanligini adib o‘z vaqtida chuqur anglab yetgan va insonlarni ogohlikka charishni o‘z burchi deb bilgan. Chunonchi,

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



nafs, ta'ma, o'g'irlik, tovlamachilik avj olgan, ma'rifat unutilayozgan, ilm-fan tanazzulga yuz tutgan jamiyat taqdiriga beparvo bo'lish So'fi Olloyorning e'tiqodiga zid edi. Chunki shoir, bu jirkanch baloning oldi olinmas ekan, uning barchani o'z domiga tortishi muqarrarligini hamda bundan qutulish uchun faqat kuchli ma'naviy rahbar yetakchiligida bid'atlarga qarshi kurashish kerakligini his qilgan. Shu bois, So'fi Olloyor bir ijodkor sifatida o'zi ham bu mafkuraviy kurashda chetda qolmaslikka ahd qiladi va o'zini jamiyat taqdiri uchun mas'ul deb biladi. Jumladan, adibning quyidagi to'rtligi yuqoridagi fikrimizni to'liq asoslaydi:

*Yomon nafsing sani o'tdek tutashdi,  
Gunohing bora-bora haddin oshdi.  
Na kim qilding jahonda erta-yu kech,  
Riyo birla ul ishni aylading hech [7;50]*

Shu o'rinda aytish joizki, So'fi Olloyor "Sabot ul-ojizin"ni yaratishda ikki buyuk chashmadan oziq oldi. Birinchisi, islom ta'limoti va uning muqaddas kitobi Qur'ondagi ezgulik, hadislar, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom, boshqa din-tasavvuf namoyandalarining ibratli hayot yo'li. Ikkinchisi, adabiy an'analar bo'lib, islom ta'limoti va uning maqsad-mohiyatini targ'ib qilgan badiiy asarlar. Bu o'rinda, ayniqsa, Sulton ul-orifin Shayx Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Nosiriddin Rabg'uziy, Navoiy, Bobur asarlarining ta'siri sezilarlidir. "Ko'hna tariximizni qaysi davrini eslamaylik, din har doim odamlarni o'z-o'zini idora etishga, yaxshi hislatlarni ko'paytirib, yomonlaridan xalos bo'lishga chorlagan. Har bir insonga, oila, jamoa, mintaqa, bir so'z bilan aytganda, umumxalqqa rahnamo bo'lgan. Uni og'ir-og'ir sinovlarga bardosh berishga, yorug' kunlarga intilib yashashga da'vat qilgan, ishontirgan. Bunday da'vat odamlarga o'z navbatida kuch-quvvat bag'ishlagan, bir-biriga mehru oqibatini oshirgan" [2;206].

"Sabot ul-ojizin"ni o'rganish kitob mavzu jihatidan ikki qismga bo'linganini ko'rsatadi. Birinchi qism da'vat qismi bo'lib, unda xalqni uyqu - g'aflatdan uyg'onishga, tavba qilishga, Haq yo'liga qadam qo'yishga, Rasululloh (s.a.v.) sunnatlariga qaytishga chaqirish yetakchilik qilsa, ikkinchi qism - muhabbat tariqatiga qadam qo'yan solik kasb etishi kerak bo'lgan fazilatlar, tariqat odobiga bag'ishlangan.

Ikkinchi qismni mavzu nuqtai nazaridan oldingisidan ajratib turadigan ahamiyatli belgilar, hatto har bir manzumada keltirilgan "solik", "sufiy", "oqil", "oshiq", "darvish", "mo'min", "ozoda", "sodiq", "nozir", "komil" atamalarining birinchi qismda uchramasligida ham ko'rinadi. Bu mushohadalar "Sabot ul-ojizin"



asari mutafakkirning tablig‘- tarvij ishlari bosqichlarida izchil yozib borilgani hamda shaxs mafkura va ma’naviyatini pog‘onama - pog‘ona isloh etib borishning aniq dasturiga asoslanganligini tasdiqlaydi.

“Sabot ul - ojizin” Qur’on va hadisning mag‘zi bo‘lib, ma’lum bir maqsadga qaratilgan. Undagi she’rlar kishi ruhiyatiga kuchli ta’sir etishi va dunyoqarashida keskin burilish hosil qilishi uchun So‘fi Olloyor qat’iy ogohlantirish yo‘lidan ham keng foydalangan. Shuning uchun ham “Sabot ul - ojizin”dagi mavzularning eng muhimi Oxirat kuni va uning dahshatlarini yoritishdan iborat bo‘lgan.

Asar avvalo Allohga hamdu sano tarzida boshlanib, keyin Payg‘ambarimiz Rasululloh sollAllohu alayhi vasallam sifatleri bayoni, Allohni tanish bayoni, uning yagonaligi hamda sifatleri bayoni alohida e’tirof etilgan. Undan so‘ng iymon keltirish, farishtalar bayoni, payg‘ambarlarga iymon keltirish bayoni va boshqa ko‘plab bayonotlar hamda ularga mos hikoyat va munojotlar bilan ifodalangan. Ushbu hikoyatlar bilan So‘fi Olloyor kitobxonga, jamiki insoniyatga nasihat, maslahat bermoqchi va hikoyat keltirish orqali o‘z nasihatiga dalil qilib ko‘rsatmoqchi bo‘lgan, deyish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, hikoya qahramonlari misolida ibrat qilmoqchi. Asarda alohida munojotlar ham mavjud. Munojot so‘zining lug‘aviy ma’nosi ba’zi lug‘at va qomuslarda quyidagicha izohlanadi: “munojot” so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, najot tilash, yashirincha suhbat[2]; xudoga dil rozi aytish, zorlanish[8]; yalinish, yolvorish[5]; najot so‘ramoq, tavallo qilmoq[4]; shivirlamoq, kim bilandir yuzma-yuz, yashirincha maxfiy suhbatlashmoq[7] kabi ma’nolarni bildiradi[3;9].

Demak, asarning va unga yozilgan sharhlarning yozilishiga zarurat tug‘dirgan sabablar yuqoridagi vajlardir. Ammo asarning yozilishidan ko‘zlangan maqsad esa, sog‘lom jamiyatning asosiy qoidalari hisoblangan halollik, go‘zal axloq va nafs tarbiyasi kabi fazilatlar masalalariga qaratilgandir.

“Sabot ul - ojizin”dagi axloq - odobga doir har bir mavzuda biror bayt, she’riy lavha yo‘qki, unda shoir o‘z fikrlariga, pandu o‘gitlariga sayqal bermasin, o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan, nozikliklaridan mahorat bilan foydalangan bo‘lmasin. Shoir o‘z misralariga hayot saboqlaridan kelib chiqadigan, odamlarga kuchli ta’sir ko‘rsata oladigan, ularni fikrlashga, o‘ylab ish tutishga undaydigan ma’nolarni, badiiyligni singdira oladi.

Xulosa qilib aytganimizda, So‘fi Olloyor merosi bugungi kunda ham bebaho ma’naviyat durdonasi hisoblanadi. “Sabot ul – ojizin” ma’naviy ma’rifat beruvchi asar. So‘fi Olloyorning bu asarining mazg‘i o‘ziga xos pand - nasihat, yoshlarni sof

# “O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



aqidaviy ta'limotlar asosida tarbiyalash dasturi sifatida har bir xonadonga kirib borar ekan, u insoniyatni g'aflatdan ogohlantiradi. Uni yengish sir - sinoatidan xabardor etadi. So'fi Olloyor bu asardagi asosiy g'oyani jamiyatni qayta tarbiyalash, uning vujudini turli marazlardan davolash, ma'naviyat buloqlari ko'zini ochish va xalq mafkurasini yot g'oyalardan tozalash, sof islomiy aqidani bid'atlardan isloh qilish kabi maqsadlarga yo'naltirgan sababli, u bugungi kun o'quvchisi ko'nglini ham uyg'oklikka, tiriklikka, bedorlikka, tozalikka boshlovchi buyuk kuchga ega.

Demak, yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, “Sabot ul - ojizin” ma'naviy ma'rifat beruvchi asar. U bugungi kun o'quvchisi ko'nglini ham uyg'oklikka, tiriklikka, bedorlikka, tozalikka boshlovchi buyuk kuchga ega. U insoniyatni g'aflatdan ogohlantiradi. Uni yengish sir-sinoatidan xabardor etadi. Chuqur g'oyalar targ'ibiga bag'ishlangan “Sabot ul-ojizin” asari badiiy balog'atning ham nodir namunasi. Asarning o'ziga xosligi ko'proq badiiyatida, yangicha topilmalarda namoyon bo'lishini ko'rish mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allayarova N. “Sabot ul-ojizin” asarining ma'rifiy yo'nalishi va badiiyati. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand, 2002.
2. Баранов Х.К. Большой арабской-русский словарь – М.: 1985.
3. Эркабоева Н. Алишер Навоий ижодида муножот. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун езилган диссертация. Т: 2008.
4. Персидско- русский словарь – Т.: 1953.
5. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati. – Т.: -1984.
6. Allayarova N. “Sabot ul-ojizin” asarining ma'rifiy yo'nalishi va badiiyati. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand, 2002
7. Sirojiddinov Sh. So'fi Olloyor ilohiyoti. 1-qism. Jamiyat va burch.–Т.: 2001
8. Suvonqulov I. So'fi Olloyor. –Т.: Fan, 1995
9. Suvonqulov I. So'fi Olloyor. Ma'naviyat ildizlari.– Samarqand: 2000